



УДК 94(512.1)

Aziza REZVONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: rezvonovaaziza@gmail.com
Javohirbek JO'RAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
Sanjarbek UROLOV,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti A.Biykuziyev taqrizi asosida

XUNN IMPERIYASINING TASHQI SIYOSATI VA XALQARO MUNOSABATLARDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada miloddan avvalgi III asrda shakllangan Xunn imperiyasining tashqi siyosiy faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda xunnlarning Xan imperiyasi bilan olib borgan harbiy va diplomatik munosabatlari, o'zaro sulh shartnomalari hamda siyosiy kelishuvlarning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, xunnlarning Markaziy Osiyo, hududidagi ko'chmanchi qabilalar bilan siyosiy ittifoqlari, diplomatik aloqalari va madaniy ta'siri tahlil qilingan. Maqola xunn imperiyasining tashqi siyosati nafaqat harbiy yurishlar, balki siyosiy nikohlar, sovg'a-salom almashinuvi hamda o'lpon tizimi orqali amalga oshirilgan murakkab siyosiy tizim sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: Xunn imperiyasi, tashqi siyosat, xan davlati, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar, siyosiy nikohlar, o'lpon tizimi, sovg'a-salom almashinuvi, G'arbiy yurishlar, xunlar va Attila, shanyu, yabg'u.

FOREIGN POLICY OF THE HUNN EMPIRE AND ITS PLACE IN INTERNATIONAL RELATIONS

Annotation

The article analyzes the foreign policy of the Hun Empire, which was formed in the 3rd century BC, based on historical sources. The study covers the military and diplomatic relations of the Huns with the Han Empire, the content of mutual peace treaties and political agreements. The political alliances, diplomatic relations and cultural influence of the Huns with nomadic tribes in Central Asia are also analyzed. The article evaluates the foreign policy of the Hun Empire as a complex political system that was carried out not only through military campaigns, but also through political marriages, the exchange of gifts and greetings, and the tribute system.

Key words: Hun Empire, foreign policy, Han state, military campaigns, diplomatic relations, political marriages, the tribute system, the exchange of gifts and greetings, Western campaigns, Huns and Attila, Shanyu, Yabgu.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ГУННСКОЙ ИМПЕРИИ И ЕЕ МЕСТО В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В статье на основе исторических источников анализируется внешняя политика империи гуннов, сформировавшейся в III веке до н. э. В исследовании рассматриваются военные и дипломатические отношения гуннов с империей Хань, содержание взаимных мирных договоров и политических соглашений. Также анализируются политические союзы, дипломатические связи и культурное влияние гуннов на кочевые племена Центральной Азии. В статье рассматривается внешняя политика империи гуннов как сложная политическая система, которая осуществлялась не только посредством военных походов, но и посредством политических браков, обмена дарами и приветствиями, а также системы дани.

Ключевые слова: империя гуннов, внешняя политика, государство Хань, военные походы, дипломатические отношения, политические браки, система дани, обмен дарами и приветствиями, западные походы, гунны и Аттила, шаньюй, ябгу.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan sivilizasiyalar shakllangan muhim hudud bo'lib, aynan shu yerda eng qadimiy ko'chmanchi madaniyatlar vujudga kelgan. Keng dashtlar ko'plab elatlar va qabilalarning shakllanishi hamda tarix sahnasidan chiqib ketishiga guvoh bo'lgan. Ana shunday qadimiy ko'chmanchi xalqlardan biri Xitoy manbalarida syunnu, tarixiy adabiyotlarda esa xunlar nomi bilan ma'lum bo'lgan qudratli qabilalar ittifoqidir. Ular Yevroosiyo siyosiy jarayonlariga, xususan Qadimgi Xitoy tarixiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Miloddan avvalgi III-I asrlarda shimoliy Osiyo dashtlarida yashagan ko'chmanchi qabilalarning siyosiy birlashuvi natijasida Xunlar davlati shakllandi va miloddan avvalgi 209-yilda shan'yuy Mode tomonidan markazlashgan imperiyaga aylantirildi. Qisqa vaqt ichida xunlar harbiy qudrati va mustahkam boshqaruv tizimi bilan yirik ko'chmanchi davlatga aylandi. Ularning siyosiy va harbiy

tajribasi keyinchalik turkiy va mo'g'ul qabilalarining siyosiy an'analari shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xunn imperiyasining tashqi siyosatini o'rganishda qadimgi yozma manbalar, ayniqsa xitoy solnomalari, muhim ahamiyatga ega. Bu manbalar xunnlarning siyosiy tuzumi, diplomatik aloqalari va harbiy faoliyatini tarixiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Xunlar haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar xitoy tarixchilik an'anasida uchrab, ularning asosiy manbasi "Xitoy tarixining otasi" sanalgan Sima Syan tomonidan yaratilgan "Shi ji" asari asari hisoblanadi. Ushbu asar R. V. Vyatkin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Shuningdek, N.Y.Bichurin, N.V.Kyuner va V.S.Taskinlarning ishlari xunnlarning siyosiy tizimi va tashqi aloqalarini yoritishda muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega. Bu manbalarda Xunn imperiyasining Xan davlati bilan olib borgan diplomatik munosabatlari, sulh

shartnomalari, siyosiy nikohlar va o'lpon tizimi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. G'arb manbalari orasida A.Martsellin va P.Kesariyskiy asarlarida xunnlarning Yevropaga yurishlari va xalqaro maydondagi siyosiy-harbiy faoliyati tasvirlangan. Xunlar tarixini o'rganishda XX asr sovet olimlari, jumladan A.N. Bernshtam, L.N.Gumilyov, D.B. Kuzenov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari muhim o'rin tutadi. Mustaqillik davrida esa T. Salimov, A. Kabirov, R. Rajabov, D. Urakov va A. Biykuziyevlarning ishlari xunlar tarixini O'rta Osiyo sivilizatsiyasi doirasida qayta baholashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada xunn imperiyasining tashqi siyosatini o'rganishda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, qiyosiy, tarixiy-genetik va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Bu metodlar siyosiy jarayonlar, qadimgi Xitoy va Rim manbalari hamda xunn diplomatiyasining shakllanishini siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar uyg'unligida tahlil qilishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Xunlar altay tillar guruhiga mansub ko'chmanchi qabilalar bo'lib, ularning tili qadimiy manbalarda proturkiy unsurlarga ega deb qayd etiladi. Miloddan avvalgi taxminan 220-yildan milodiy II asrgacha Xitoyning shimolidagi dashtlarda yashagan ko'chmanchi qabilalar "syunnu" yoki "xunnu" nomi ostida birlashib, Xitoy hududlariga muntazam hujumlar uyushtirgan. Ilmiy qarashlarga ko'ra, xunnlarning bir qismi g'arbiga ko'chib, turkiy, sharqiy sarmat va ug'or qabilalari bilan aralashuvi natijasida Yevropada "gunlar" nomi bilan tanilgan yangi xalq shakllanishiga asos bo'lgan [8]. Xunlar imperiyasining kuchayishi shan'yuy Mode (Mao-dun) faoliyati bilan chambarchas bog'liq. U m.av. 209-yilda hokimiyatni qo'lga olib, ichki ziddiyatlarni bartaraf etdi va qo'shinni qat'iy intizom asosida qayta tashkil qildi. Uning dastlabki harbiy yurishlari shimoliy dashtlardagi dunxu (dongxu) qabilalariga qarshi yo'naltirilib, ular ustidan nazorat o'rnatildi hamda ko'plab asirlar va chorva xunlar tasarrufiga olindi. Bu g'alaba Xunlar davlatining hududiy kengayishi va harbiy qudratini mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi [1]. Xunn davlati ikki qismga bo'lingach (bu hol etnik emas, asosan siyosiy va madaniy omillar bilan izohlanadi), shimoliy xunlar mustaqil hokimiyatni saqlab qola olmadi va ularning bir qismi g'arbiga ko'chishga majbur bo'ldi. Jung'oriya va Qirg'iz dashtlari orqali harakatlangan xunlar milodiy IV asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Yevropaga yetib bordilar va bu hududlarda fin qabilalari boshchiligidagi mahalliy elatlar bilan to'qnash keldilar. G'arbiga siljish jarayonida xunlar tarkibidagi turkiy unsur tobora kamayib bordi, shu bois Modening qo'shinlari bilan Attila davridagi hunlar o'rtasida etnik umumiylik kuchli bo'lmagan. Shunga qaramay, IV-V asrlardagi xunnlarning Yevropaga bostirib kirishi Osiyoning sharqiy hududlaridagi siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq edi [5].

Miloddan avvalgi III-II asrlarda shan'yuy Mode (Maudun) shan'yuy rahbarligida Xunlar davlatining harbiy qudrati keskin kuchaydi. 209-yilda hokimiyatni qo'lga olgan Mode ichki siyosiy raqobatni bartaraf etib, qo'shin intizomini tikladi va qo'shni chorvador qabilalarni avvalo dunxui (dongxu) guruhlarini o'z tasarrufiga bo'ysundirdi. Miloddan avvalgi 200-yilda Xan imperatori Gao-szu (Lyu Ban) Xunlarga qarshi yurish boshlaydi. Ammo Mode (Maudun) qo'shinining qarshiligiga uchraydi. Bundan Xan qo'shini og'ir vaziyatga tushadi va jang yakunida imperiya Xunlar bilan tinchlik bitimi tuzishga majbur bo'ladi. Bitim natijasiga ko'ra, Xan sulolasi 23 yil davomida xunlarga o'lpon to'lab turgan. Shuningdek, tinchlikni mustahkamlash maqsadida diplomatik nikoh siyosati yuritilib, Xan malikalarning shan'yuyarga turmushga berilishi orqali siyosiy barqarorlikka erishilgan [2].

Xunlar tashqi siyosatining markaziy yo'nalishi Xan imperiyasi bilan bo'lgan munosabatlar edi. Sima Syan

ma'lumotlariga ko'ra, shan'yuy Mode davrida xunlar harbiy-siyosiy jihatdan eng yuqori darajaga yetib, Xan davlatiga nisbatan faol siyosiy bosim yuritgan. Miloddan avvalgi 200-yilda Bayden tog'larida bo'lib o'tgan jangda Xan imperatori Liu Ban xunlar tomonidan qurshovga olinib, bu holat kuchlar nisbatini xunlar foydasiga o'zgartirdi va Xan davlatini diplomatik kelishuv tuzishga majbur etdi [9]. Shundan so'ng, Xan imperiyasi "heqin" tinchlikni qarindoshlik orqali ta'minlash siyosatini joriy etadi. Ushbu siyosatga ko'ra, Xan saroyi shan'yuyga saroy kanizaklari yoki uzoq qarindosh malikalarni turmushga berib, xunlar esa chegara hududlariga hujum qilmaslik majburiyatini oladi. O'z navbatida, Xan davlati xunlarga ipak, don, oltin va boshqa mahsulotlar bilan muntazam tovon to'lab turgan [7].

Shan'yuy Mode vafotidan so'ng (mil. avv. 174-yil) taxtga uning o'g'li Laoshan shan'yuy o'tirib, xunn davlatining siyosiy barqarorligini saqlashga intildi. Uning davrida tashqi siyosatda g'arbiy qabila ittifoqlariga, xususan Da-yuechjilarga qarshi yurishlar muhim o'rin egalladi. Sima Syan ma'lumotlariga ko'ra, xunlar yuechjilarni mag'lub etib, ularning katta qismini g'arbiga, O'rta Osiyoga ko'chishga majbur qilgan, bu esa keyinchalik Kushonlar davlatining shakllanishiga zamin yaratdi. Milodiy I asrga kelib xunlar orasida siyosiy tarqoqlik kuchayib, imperiya Shimoliy va Janubiy Xunlarga bo'lindi, natijada siyosiy ta'sir susaydi, Xan bilan munosabatlar keskinlashdi va iqtisodiy resurslar uchun ichki raqobat kuchaydi [4].

Xunlarning 375-yilda sarkardasi Balamer (Balamir) boshchiligidagi qo'shinlari Sharqiy Yevropaga bostirib kirib, Shimoliy Qora dengiz bo'ylarini o'z nazoratiga olgan. Xunnlarning yurishlari natijasida ular ko'plab german qabilalari bilan to'qnashgan. Ularning orasida gotlar alohida o'rin tutgan bo'lib, xunlar ta'siri ostida gotlarning bir qismi xunlarga tobe bo'lib, o'zlarini ostgotlar (sharqiy gotlar) deb atagan. Mustaqilligini saqlagan boshqa bir qismi esa Frakiyaga ko'chib, tarixda visgotlar (g'arbiy gotlar) nomi bilan tanilgan [16]. Bu voqealar xunnlarning Yevropa tarixidagi roli nafaqat harbiy, balki etnopolitik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Milodiy 394-395-yillarda Xunnlarning ayrim qismlari Kichik Osiyo, Suriya va Kapadokiya hududlariga kirib borgan. Bu yurishlar Xunnlarning o'z davrida Osiyodan Yevropagacha bo'lgan keng mintaqada geosiyosiy o'yinchi sifatida faol bo'lganini ko'rsatadi [14].

Manbalar tahlili xunnlarning G'arbiga yurishlari Yevropa siyosiy tuzilmasini o'zgartirish bilan birga, O'rta Osiyo va janubiy hududlarda idariylar, alxonlar hamda eftaliylar kabi yangi siyosiy kuchlarning shakllanishiga zamin yaratganini ko'rsatadi. Manbalarda qayd etilishicha, eftalitlar dastlab yuechjilarning bir tarmog'i sifatida shakllangan bo'lib, ularning ilk vatani Oltoy mintaqasiga taalluqli deb qaraladi. Keyinchalik uyg'ur qabilalari harakati ta'sirida ular O'rta Osiyoga siljib, Badian (hozirgi Afg'onistonning Bomiyon vohasi)ni siyosiy markaz sifatida mustahkamlagan. Eftalitlar diniy hayotida buddizm muhim o'rin egallagan bo'lib, ular bu diniy an'anani kushonlardan meros qilib olgan va ayrim siyosiy-marosimiy unsurlarni ham davom ettirgan. Xunlar (xitoycha "Xiongnu") qadimgi Xitoy manbalarida shimoliy ko'chmanchilar sifatida tilga olinadi. Ularning hududi Yan va Chjou yerlaridan Shamo cho'ligacha, Yi xalqlaridan Rong qabilalarigacha cho'zilgan. Xunlar qat'iy urug'-qabila tizimi asosida, shan'yuy hokimiyati qo'lida boshqarilgan. Solnomalarga ko'ra, ular Xan davlatiga bo'ysunmagan, bo'ysunmagan va siyosiy mustaqilligini saqlab qolgan [6].

Milodiy 434-yildan boshlab xunlar davlatiga aka-uka Attila va Bleda birgalikda rahbarlik qildi. Ular avvalgi hukmdor Rugilaning siyosiy merosini davom ettirib, hokimiyatni mustahkamlash va imperiya nufuzini oshirishga intildilar.

Aynan shu davrda xunlar Yevropadagi eng qudratli harbiy-siyosiy kuchlardan biriga aylandi. Milodiy 435-yilda xunlar Sharqiy Rim (Vizantiya) imperiyasini Margus shartnomasini imzolashga majbur etadilar. Bu kelishuvga ko'ra, Vizantiya imperiyasi xunlarga erkin savdo qilish huquqini beradi va yillik o'lpon to'lash majburiyatini oladi. Biroq 440-yilda shartnoma buzilgach, Attila va Bleda qo'shinlari Dunay bo'yidagi Kastr Konstantiya (hozirgi Smederevo)ga hujum qiladi. Natijada Margus, Singidunum (Belgrad) va Viminasiun (Kostolats) kabi yirik shaharlarga jiddiy zarar yetkazildi [10]. Shundan so'ng, 441-yilda o'zaro sulh tuzilgan bo'lsa-da, ikki yil o'tib Rim yana shartnoma bandlarini buzadi. Natijada 443-447-yillar oralig'ida Attila boshchiligidagi xun qo'shinlari Sharqiy Rim hududlariga kirib boradi. Xersones yaqinida bo'lgan jangda vizantiyaliklar og'ir mag'lubiyatga uchraydi, xun qo'shinlari esa Konstantinopol poytaxtiga qadar yaqinlashadi. Milodiy 447-yilda tuzilgan yangi turdagi shartnoma Vizantiya imperatori Feodosiy I ni xunlarga har yili yanada ko'proq xiroj to'lashga majbur qiladi. Shu bilan Xunlar imperiyasi Sharqiy Rim ustidan siyosiy-diplomatik ustunlikka erishadi. Attila dastlab hokimiyatni ukasi Bleda bilan teng bo'lib boshqargan bo'lsa-da, 445-yilda Bledaning o'ldirilishi bilan yakka hukmronlikni o'z qo'lga oldi. Uning mustaqil boshqaruvi davrida xunlar Vizantiya ustidan bosimni yanada kuchaytirgan edilar. Biroq Feodosiy II vafotidan so'ng taxtga chiqqan imperator Markian xunlar bilan sulhni bekor qildi va ularga qarshi harbiy tayyorgarlikni kuchaytirdi [13].

Milodiy 450-yildan boshlab Attila o'z siyosiy va harbiy e'tiborini G'arbiy Rim imperiyasiga qaratdi. Bunga franklar hukmdorlaridan birining yordam so'rab murojaat qilgani turtki bo'lgan. 451-yilda Attila boshchiligidagi Xun qo'shinlari Galiya (hozirgi Fransiya) hududiga keng ko'lamli yurish boshlaydilar. 20-iyun kuni Katalauniya tekisligida (hozirgi Shalon-an-Shampan yaqinida) Yevropa tarixidagi eng yirik va hal qiluvchi janglardan biri yuz beradi. Bu jangda G'arbiy Rim imperiyasi qo'shinlari qo'mondon Flaviy Aetsiy boshchiligidagi Tuluza qirolligining visigot armiyasi bilan ittifoq tuzib, Attila boshchiligidagi xunlar va ularga qo'shilgan german qabilalari ittifoqiga qarshi turadi. Natijada 451-yilning 20-iyunida Katalauniya tekisligida sodir bo'lgan jang Yevropa tarixidagi eng muhim to'qnashuvlardan biri hisoblanadi [3]. Manbalarda qayd etilishicha, jang nihoyatda shiddatli o'tgan va qo'shinlar safida tartibsizliklar ham yuzaga kelgan. Katalauniya maydoni strategik ustunlik beruvchi balandliklardan iborat bo'lib, ikki tomon ham aynan shu hududni egallash uchun keskin jangga kirishgan. Rim imperiyasi qo'shini visigotlar bilan ittifoq tuzib, kuchli mudofaa tizimi shakllantiradi. Xunlar qo'shinining o'ng qanotini Attila boshqargan bo'lsa, markazda uning eng sodiq lashkarlari joylashtirilgan. Ayniqsa, alanlar podshosi Sangiban Attilaning bosimidan xavsiragan, unga bo'ysunishga va Aurelianum (Orlean) shahrini topshirishga va'da bergani vaziyatni yanada murakkablashtirgan. Biroq G'arbiy Rim qo'mondoni Aetsiy hamda vesgotlar qiroli Teodorix I bu rejaning oldini olib, shahar mudofaasini mustahkamlaydi. Katalaun jangi ikki tomon uchun ham katta talafotlar bilan

yakunlangan bo'lsa-da, Attila bu jangda strategik g'alabaga erisholmaydi. Natijada u Sharqqa chekinishga majbur bo'lib, xunlar G'arbiy Rim imperiyasini to'liq egallay olmagan, biroq ularning harbiy yurishlari Yevropa siyosiy manzarasini tubdan o'zgartirgan [11].

Milodiy 451-yildagi Katalaun tekisligidagi jangdan so'ng xunlar G'arbiy Rim imperiyasiga bosimni davom ettirdi va 452-yilda Italiyaga yurish boshladi. Manbalarga ko'ra, Attila qo'shinlari tarkibida ostgotlar, gepidlar va boshqa qabilalar mavjud bo'lib, ular Shimoliy Italiyada kuchli harbiy bosim o'tkazgan. Attila Avstriya tomondan Italiyaga kirib kelib, uzoq qamaldan so'ng mustahkam qal'a hisoblangan Akvileya shahrini egalladi. Bu g'alaba xunlarning Italiyadagi eng yirik harbiy muvaffaqiyatlaridan biri bo'ldi. Shundan so'ng xunlar Po daryosi bo'ylab harakatlanib, Pavia va Mediolon (Milan) shaharlarini egallab, aholiga katta miqdorda tovon solgan [15].

G'arbiy Rim imperiyasi xunlar bosqini qarshisida o'z qilib, Attilani to'xtatishning yagona yo'li diplomatiya ekanini anglab yetdi. Shu maqsadda Rim saroyi Papa Lev I boshchiligidagi elchilarni xunlar qarorgohiga yubordi. Manbalarga ko'ra, Attilaning Rim bilan tinchlikka rozi bo'lishiga bir nechta omillar, jumladan Xun qo'shinlari orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi va harbiy salohiyatning pasayishi sabab bo'lgan. Natijada Attila Rim tomonidan yuborilgan katta miqdordagi sovg'alarni qabul qilib, Italiyani tark etib, Dunay bo'yidagi qarorgohiga qaytadi. Bu voqea Xunlar va Rim o'rtasidagi qarama-qarshilikning so'nggi bosqichlaridan biri bo'ldi. Attilaning vafotidan (458-yil) so'ng esa Xun qabilalari ittifoqi butunlay parchalanib ketdi [12]. Tadqiqotchilar, xususan K. A. Inostransev ta'kidlaganidek, xunlarning g'arbga ko'chishi jarayonida ularga turkiy kelgindi unsurlar bilan bir qatorda, mahalliy ugor qabilalari ham qo'shilgan. Ana shu etnik aralashuv keyinchalik Yevropada paydo bo'lgan gunlar bilan Sharqdagi xunlar o'rtasida kuzatiladigan madaniy va etnografik farqlarni izohlab beradi [5]. Natijada ular Yevropada yangi siyosiy kuch sifatida shakllanib, keyinchalik gunlar nomi bilan tanilgan etnik-siyosiy birlikning vujudga kelishiga asos solgan.

Xulosa va takliflar. Xun imperiyasining tashqi siyosati Markaziy Osiyodan Yevropagacha bo'lgan hududda harbiy kuch, diplomatiya va iqtisodiy bosim uyg'unligiga tayangan murakkab siyosiy tizimni shakllantirdi. Xan davlati bilan yuritilgan "heqin" siyosati va o'lpon tizimi Sharqda xunlarning ustun mavqegini ta'minlagan bo'lsa, g'arbiy yurishlar ularning Yevroosiyo miqyosidagi global siyosiy ta'sirini namoyon etdi. Xunlar migratsiyasi Yevropa etnopolitik xaritasining o'zgarishiga hamda gunlar, kidariylar, alxonlar, eftalitlar va avarlar kabi yangi qabilaviy ittifoqlarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Ayniqsa Attila davrida xunlarning Sharqiy va G'arbiy Rimga siyosiy bosim o'tkazishi ularning mustaqil geosiyosiy kuch sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Xunlarning tashqi siyosati Sharq va G'arb o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar dinamikasini belgilagan global jarayon bo'lib, butun Yevroosiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan.

ADABIYOTLAR

1. Бернштам.А.Н Очерк истории гуннов. Ленинградского Государственного ордена Ленин университета ИМ.А.А Жданова Ленинград, 1951.
2. Бичурин Н.Я. (перев.) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.- Л.: Изд-во АН СССР. Т. I. 382 с. Т. II. 1950 аб 1851. С. 355.
3. Кузнецов Д.В. Хрестоматия по истории международных отношений, Книга 2 средние века Благовещенск. 2013.
4. Крадин Н. Н. Империя Хунну. – Москва: Восточная литература, 2001. С. 45.
5. Иностранцев К.А. Хунну и гунны // Труды туркологического семинария. Т. 1. Л., 1926. С. 119-181.
6. Салимов Т. Ў Жахон тарихи Европа мамлакатлари V-XV асрларда. – Тошкент: Университет, 2014 .
7. Сыма Цянь. Исторические записки (Ши цзи). Биография сюнну. Полный русский перевод / ред. А. Р. Вяткин. – Москва: Восточная литература, 2007. С. 132-144.

8. Р.В.Вяткина. Сыма Цянь. Исторические записки. Т. VI. Перевод, предисл. и коммент. – Москва: 1992 Наука. С. 296-300.
9. History of civilizations of Central Asia: Volume III. UNESCO, 1996.
10. Гумилёв Л.Н. Некоторые вопросы истории хуннов // Вестник древней истории. – Москва: 1960. С.74.
11. Kabirow A. Qadimgi Sharq tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016.
12. Rajabov R. Jahon tarixi. Qadimgi Yunoniston, Rim tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
13. Thompson, E. A. The Huns. – Oxford:Blackwell, 1996. P.340.
14. Urakov D., Xolliyev A., B., Djurayev Gabrielyan S., Tursunov R., MaxmudovO., Rozakov.A,Biquziyev A., Xaynazarov R., Kenjayeva M. Jahon tarixi. I tom. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
15. Qosimov E., Nuriddinov E., Mulladjanova R., Ismatullayev F., Rasulova N., Zokirov SH., Abduazimov A., Ponomaryova T., Nasriddinova M., Jahon tarixi. (Qadimgi va O'rta asrlar davri). – Toshkent: 2013. B.210.
16. History of civilizations of Central Asia: Volume III. Unesco, 1996. – 568 p.